

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IQTIDORINI YUZAGA
CHIQUARISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7810192>

Xudoykulova Mukaddas Tursunovna
Toshkent shahar M.Ulug'bek tumanidagi
256-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilarining iqtidorini yuzaga chiqarishda pedagogik texnologiyalarning o'rni haqida so'z boradi. Unda iqtidorli o'quvchilarni qobiliyatlarini yuzaga chiqarish haqida usullar yoritilgan.*

THE ROLE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE
TALENTS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract: *This scientific article talks about the role of pedagogical technologies in bringing out the talents of students in primary grades. There are ways to bring out the talents of gifted students illuminated.*

РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ТАЛАНТОВ
МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ.

Аннотация: *В данной научной статье говорится о роли педагогических технологий в раскрытии талантов учащихся начальных классов. Есть способы выявить таланты одаренных учеников освещенный.*

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: *boshlang'ich sinflarda o'quvchilarining iqtidorini yuzaga chiqarishda pedagogik texnologiyalar, iqtidorli o'quvchilarni qobiliyatlarini yuzaga chiqarish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

The purpose of writing this article: *pedagogical technologies for developing the talents of students in elementary grades, recommendations for developing the abilities of talented students.*

Цель написания данной статьи: *педагогические технологии развития талантов учащихся начальных классов, рекомендации по развитию способностей талантливых учащихся.*

Usullar: *“O'ylang, qaysi harflar tushib qolgan?”, “Mustaqil o'rganish usuli”, “Estafeda”, “Tabriknoma yozish”, “Axborot uzatish”, “Xotira mashqi”, “Harflar bilan misol bajaramiz”*

Methods: *“Think, which letters are missing?”, “Independent learning method”, “Relay”, “Writing a greeting card”, “Transfer of information”, “Memory exercise”, “Let's do an example with letters”*

Методы: «Подумай, каких букв не хватает?», «Самостоятельный метод обучения», «Эстафета», «Написание поздравительной открытки», «Передача информации», «Упражнение на память», «Сделаем пример с буквами»

Natija: boshlang'ich sinflarda iqtidorini yuzaga chiqarishda pedagogik texnologiyalarning o'рни haqida va roli haqida ma'lumotlar berish, ularning bilimlarini rivojlantirish.

Result: to provide information about the place and role of pedagogical technologies in the development of talent in primary classes, to develop their knowledge.

Результат: предоставить информацию о месте и роли педагогических технологий в развитии талантов в начальных классах, развить свои знания.

Kalit so'zlar: qobiliyat, iste'dod, pedagogik texnologiyalar, estafeda, mustaqil fikr, nutq, so'z boyligi, topqirlik...

Key words: ability, talent, pedagogical technologies, relay, independent thought, speech, vocabulary, ingenuity...

Ключевые слова: способность, талант, педагогические технологии, эстафета, самостоятельное мышление, речь, словарный запас, смекалка...

Iqtidorli o'quvchilar va ular bilan ishlash dasturlari kabi iboralari pedagogik nashrlar, o'qituvchilar va psixologlar suhbatlarida ko'plab uchratamiz. Iqtidor masalasiga bag'ishlangan ilmiy tatqiqotlarda shaxs qobiliyat va iqtidorining namoyon bo'lishi faqat uning o'zigagina emas, balki atrof - muhitga naqadar bog'liq ekanligi asoslab berilgan. Teskor yangiliklar oqimi bilan to'lib toshgan zamonaviy jamiyatning o'zi ham nostandart fikrlovchi, kelajak voqealarga nisbatan teskor qaror qabul qiluvchi shaxslarga katta ehtiyoj sezmoqda. Shu sabab iqtidorli o'quvchilarni qo'llab -qo'vvatlash, ularning rivojlanishi uchun lozim bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib berish, davlat va jamiyat oldida turgan asosiy- ijtimoiy masalalardan biridir.

Har bir bola o'z holicha betakror. Biroq bu o'ziga xoslik qanchalik individual bo'lmasin bolalar iqtidorini ifodalovchi ko'pgina qirralr ular uchun umumiydir. Bu qirrlarning ayrimlarini chuqur, botiney, ya'ni noprofessional ko'z orqali ilg'ab olish qiyin bo'lsa, ba'zilarini bolaning tengdoshlari, kattalar bilan munosabatda , shuningdek, bilim olish jarayonida ko'zatisish mumkin. Bu qobiliyatni faqat psixologlar emas, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari ham payqashlari mumkin.

Ko'zatisishlar asosida shu narsa ayon bo'lganki, ko'pchilik mashhur odamlarda o'ta qiziquvchanlik, ko'p savol berish xususiyatlari bo'lgan.

Ijdokor o'quvchilar boshqa o'quvchilar orasida a'lo darajadagi xotira , tinib-tinchimaslik, yakka holda ishlashni xush ko'rish, o'zini nazorat qila olish xususiyatlari bilan ajralib turganlar.

Interfaollik- o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi va o'qituvchi muloqatlarida sodir bo'lar ekan, bu usulning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay sharoit yaratish orqali bilim oluvchining faol, erkin fikr yaratishiga muhit yaratishdir.

Bu jarayon o'quvchining intilliktual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etadi va o'quv sifati hamda samadorligini oshiradi. Interfaollik darsini tashkil etishda hech bir o'quvchi chetda qolmaydi.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni uzluksiz ta'limning tarkibiy qismi bo'lib, uning moddiy texnik bazasini yanada mustahkamlash, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'quv jarayoniga o'qitishning yangi shakl va texnologiyalarini joriy etish davlat ahamiyatiga molik masalaga aylandi. Mamlakatimizda ta'lim jarayonida olib borilayotgan islohotlar jamiyat taraqqiyoti va farovonligini ta'minlovchi omil bo'lib, undagi o'zgarishlarning asosiy maqsadi yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashdir. Yurtimiz taraqqiyoti bugungi o'quvchilarning qanday tarbiyalanayotganligi, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallashga layoqati bilan o'lchanadi.¹

O'quvchilarning hayotiy faoliyatini, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy faoliyatini **qiziqarli usullar va o'yinlar** tashkil etadi. Ular o'quvchilar shaxsini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bunda o'quvchi har tomonlama shakllanadi. Ta'lim jarayonining esa natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va o'yinlar o'quvchilarda diqqatni jamlash, xotirani mustahkamlash, to'laqonli fikrlash, irodasini mustahkamlash kabi ta'limiy sifatlarni shakllantirsa, bir- biriga mehribon bo'lish, jamoani qadrlash, sadoqat, intiluvchanlik, bir- birining fikrini qadrlash kabi tarbiyaviy jihatlarga ham ega. Bundan tashqari, bu jarayonida o'quvchilar o'rtasida jamoani shakllantirish, hamkorlik, do'stlikni qaror toptirish, muloqot qilishga, hamfikir bo'lish muhitini ham yaratadi. Bu esa o'quvchilarning yanada hamjihatlikka olib keladi.

Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtidorini yuzaga chiqarishda qo'llanadigan usullar haqida to'xtalib o'tishni joiz topdim.

Yangilik kashf etish orqali o'rganish usuli.

Bu yondoshuv o'quvchilarning egallagan nazariy bilimlarini tadbiiq etish bilan bir qatorda ularning o'z-o'zlarini rag'batlantirish orqali bilim va ko'nikmalar to'plashlariga sharoit yaratadi.

Asosiy tamoyillari quyidagicha:

1. O'rganishdan maqsadni avvaldan aniqlab olish talab qilinadi.
2. O'rganish jarayoni ma'lum bir topshiriqqa yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Topshiriq quyidagilarni ta'minlaydi:

-Tayanch ma'lumot olish uchun asos
 -O'quvchi uchun notanish bo'lgan ma'lumotga chuqur kirib borishiga undaydigan so'rovga e'tibor berish

-Oldindan aniqlangan va sog'lom tarzdagi o'rganishga asoslangan natijalar.

1. Gaffarova T. "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar"-T.: "Tafakkur" 2011-y, 56-bet

-Muvaffaqiyat – faoliyat-yutuq motivatsiyasiga asoslangan.

-Guruhdagi hamkorlik:

- fikr va faoliyatni rag'batlantiradi

- mushohadaga chorlaydi

-guruh ichida ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta'minlaydi.

Shaxs yoki guruhning ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'qituvchining qo'shajak hissasiga ajratilgan vaqt chegaralangan.



O'qituvchi asosan o'qish jarayonini yengillashtiruvchi va ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta'minlovchi shaxs vazifasini o'taydi. Kamdan-kam hollarda o'qituvchi ma'lumot bilan ta'minlaydi.



O'ylang, qaysi harflar tushib qolgan?

A	R	R	A
I	K	K	I
	K	K	I

A	V	V	A	L
T	I			A
H	A	M	M	a



Mustaqil o'rganish usuli.

Ushbu usul ta'lim oluvchilarning o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishini, o'z - o'zini tekshiruv malakalarini, berilgan matnning mazmunini to'liq va ongli ravishda bayon eta bilishiga qaratilgan usuldir. Bu usul vaqti-vaqti bilan o'tkazib turiladi, o'quvchilarning mustaqil o'rganish, darslik bilan ishlash va mustaqil amaliy faoliyat bilan shug'ullanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Har bir o'quvchi alohida yoki umumiy tarzda tashkil qilinadigan topshiriqni bajaradi. O'qituvchi o'quvchilarning amaliy faoliyatiga aralashmay, tashqaridan teskari aloqa-muloqot yordamida yo'naltirib boshqaradi va nazorat qiladi.

“Estafeda” usuli.



Qo'llanilishi: O'tilgan mavzularni baholash, takrorlash, mustahkamlash, o'zaro bellashishga mo'ljallangan.

Usul maqsadi: dars jarayonida o'quvchilarni aniq tezlik bilan xatosiz javob berishga va aniq, to'g'ri qarorga kela olishga undashdan iborat.

Usul uchun kerakli jihozlar: Savollar blankasi, estafeta tayoqchasi, bayroqchadan foydalanish ham mumkin, o'quvchilarni guruhlariga ajratuvchi raqamli qog'oz.

Buni o'tkazish qoidasi:

Dastlab guruh o'quvchilari 2 guruhga ajratiladi. Ularning joylashishi va harakatlanishi quyidagidek amalga oshiriladi



1-rasm. Guruh a'zolarining partalarda joylashishi va harakatlanish sxemasi.

O'yin parta oxiridan boshlanadi.

Qaysi guruh birinchi bo'lib boshlashi qura tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

O‘qituvchi o‘yinni birinchi bo‘lib boshlaydigan jamoa ishtirokchisiga dastlabki savolni beradi. Ishtirokchi berilgan savolga javob bersa qo‘lidagi estafeta tayoqchani keyingi sherigiga uzatadi. Agar savolga javob qaytara olmasa qo‘lidagi estafeta tayoqcha o‘zida qoladi.

O‘qituvchi keyin raqib jamoaning birinchi ishtirokchisiga savol beradi. Bu ishtirokchi ham berilgan savolga javob bersa qo‘lidagi estafeta tayoqchani keyingi sherigiga uzatadi. Agar savolga javob qaytara olmasa qo‘lidagi estafeta tayoqcha o‘zida qoladi.

Estafeta tayoqchasini qatnashchilar bir-birlariga navbat bilan uzatib borishadi.

Estafeta tayoqchasini faqat savolga javob bergandagina uzatishga ruxsat beriladi. Shu tariqa savol-javob qaysidir guruh qo‘lidagi estafeta tayoqchasini o‘qituvchiga birinchi bo‘lib etkazib borishga qadar davom etadi.

Estafeta tayoqchasini jamoa a‘zolari qoidani buzmasdan, vazifani aniq va tezda bajarib, birinchi bo‘lib o‘qituvchiga yetkazib bersa o‘sha jamoa g‘olib deb topiladi. Jamoa a‘zolarining o‘yindagi ishtirokini o‘qituvchi aniqlab boradi dars so‘ngida ularni rag‘batlantiradi. Bunda ishtirokchining o‘ziga berilgan har bir savolga birinchi imkoniyatda javob qaytarib, estafeta tayoqchasini sherigiga vaqtida uzatib borishi hisobga olinadi.

“TABRIKNOMA YOZISH” usuli. Bunda o‘quvchilar shu so‘zlar orqali o‘z yaqinlariga tabriknoma yozadilar.

Tayanch so‘zlar:

*“hurmatli”, “muhtaram”, “e‘zozli”, “chin dildan”,
“mehr va muhabbat ila”, “sizning hayot
yo‘lingiz”, “zalvorli”, “jo‘mard (oliyjanob)”,
“bag‘rikenglik”, “bebaho o‘gitlar”, “yosh avlodga
namuna”, “mehr-oqibat”, “insoniylik”...*

“Axborot uzatish” usuli.

Ushbu usullar o‘quvchilarning xotira, nutq, hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish, o‘zaro do‘stona munosabatlar o‘rnatish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun eng qulay didaktik vosita hisoblanadi.

Masalan, bir o‘quvchi muayyan bir buyunning nomini aytib, qo‘lidagi koptokchani yonidagiga uzatadi. U esa qisqa muddat o‘ylab, ikkinchi bir so‘zni aytabdi. Bu so‘zlar tematik jihatdan bir guruhga mansub bo‘lishi lozim. Koptokchani olgan navbatdagi o‘quvchi ma‘no jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan ikkita so‘zni aytib, oldingilariga qo‘shishi lozim.

1-o'quvchi:o'qituvchi,

2-o'quvchi:o'qituvchi,shifokor

3-o'quvchi:o'qituvchi,shifokor,injiner

4-o'quvchi:o'qituvchi,shifokor,injiner,binokor

5-o'quvchi:o'qituvchi,shifokor,injiner,binokor,tikuvchi

6-o'quvchi:o'qituvchi,shifokor,injiner,binokor,tikuvchi,haydovchi

7-o'quvchi: o'qituvchi, shifokor, injiner, binokor, tikuvchi, haydovchi, sartarosh

8-o'quvchi: o'qituvchi, shifokor, injiner, binokor, tikuvchi, haydovchi, sartarosh, jurnalist

Shu tariqa ko'ptokcha kimning qo'liga kelsa o'sha o'quvchi oldingi o'quvchilar aytgan so'zni aytib qo'shimcha sifatida o'zidan so'z qoshib keying o'quvchiga uzatadi.O'yin shu tariqa davom etadi.

Usul kasblar, fanlar, mevalar, sabzavotlar, o'simliklar, gul turlari, hayvonlar, jihozlar, davlatlar, shoir va adiblar, kiyim turlari, pishiriqlar, san'at turlari asosida tashkil qilinishi mumkin. Buni tanlash imkoniyati faqat o'yinni boshlab bergan o'quvchiga beriladi.

Bu usul o'quvchilarning xotira, nutq, hamkorlikda faoliyat ko'rsatish, o'zaro do'stona munosabatlar o'rnatish bilan birga xotirani rivojlantirish va mustahkamlashga yordam beradi.²

“Harflar bilan misol bajaramiz” usuli.

O'tkazish tartibi. Berildan kalit asosida misollarni yechish (*misollar bolalarning yoshi, rivojlanish darajasini hisobga olgan holda tuziladi*).

MA-B=?(P). RO-MO=?(IA). BU -U=?(BA). TS-SS=?(UA).)

SA-MA=?(OA). KK-BB=?(BB)

0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
A	M	B	U	K	O	S	I	P	T

2. Barkamol avlod tarbiyasida sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Farg'ona 2011-yil 185-bet.

Qo'llanilgan barcha innovatsion usullar tarbiyalanuvchilarda o'ziga va ertangi kunga ishonch, jamoa bilan ishlash, o'zgarlar fikrini, mehnatini qadrlash, hayotga optimistik munosabatni shakllantirishini namoyon qildi.

Xulosa qilib aytganda metodika fanining oltin qoidasi sanaladigan kimga? nimani? nima



maqsadda? Qay tarzda? berish kerakligini yaxshi anglab olishi, so'ngra ushbu rejalashtirilgan materiallarni berishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari vositasida tashkil etiladigan yangi o'qitish modelidan foydalanish taqozo etiladi. Buning uchun ta'lim jarayonida nafaqat ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar hamkorligidan iborat faol usullarni, balki ta'lim oluvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ham ta'minlovchi interfaol usullardan ham foydalanishi, ya'ni o'quv dialogi va polilogi loyihasini ishlab chiqishi kerak bo'ladi. pedagoglar oldiga hozirgi davr tomonidan qo'yilayotgan talablarni bajarish uchun albatta tarbiyaga innovatsion yondashish lozim, deb ta'kidlashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Barkamol avlod tarbiyasida sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. F. 2011-yil 185-bet.
2. Gaffarova T. "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar"-T.: "Tafakkur" 2011-y
3. O'qituvchi nimalarni bilishi kerak?" (O'quv-metodik qo'llanma T, 2016-yil
4. Internetdan olingan rasmlar, slayd shablonlari, musiqa, multimediyaga mahsuloti -ZiyoNet.uz, -kitob.uz, -bolajon.uz, - multimediyaga.uz va boshqa ta'limiy saytlar